

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 454 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinovna</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Голышева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARNING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abduliyeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
Inomiddin Imomov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
Алиева Эльнара Аметовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНА	331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
Jonikulov Egamberdi Shavkat o'g'li	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
Хусанов Дурбек Нишанович	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
Xidirov Erkin Irgashovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	403
Akmal Shodiyev	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOB	408
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	



O'TKIR BRONXIOLOT BILAN KASALLANGAN BOLALARDA KATAMNEZNING EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA UZIGA XOS KECHISHI.....	412
Azimova Kamola Talatovna	
THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING CONCEPTS RELATED TO YOUTH TOURISM	416
Norboyev Allayor Ismoilovich, Mansurova Zebuniso Abdurashidovna	
THE ESSENTIAL STRATEGIES WAYS OF SERICULTURE INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	420
Khojimatov Ravshanbek Rasuljonovich	
BLENDED LEARNING PLATFORMASI KONSEPSIYASI, ARXITEKTURASI VA FUNKSIONAL TUZILMASI.....	425
Qobulova Madina Tuxbatillo qizi, Mirzaaxmedov Muxammadbobur Karimberdiyevich	
ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA FAROVONLIGIGA TA'SIRI: IQTISODIY TAHLIL VA EKONOMETRIK BAHOLASH	430
Kuanishbay Berdimuratov	
MARKETING EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY YONDASHUVLAR TAHLILI	434
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
УЧЕТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ОРГАНИЗАЦИИ	443
Бабахонов Бабуржон Шухрат угли	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH MASALALARI.....	449
Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH MASALALARI



Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich

University of Business and Science

Moliya kafedrası katta o'qituvchisi

ibroximovmuhammadjon7474@gmail.com

ORCID: 0009-0008-4449-3691

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlarini qo'llashning zamonaviy mexanizmlari, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri hamda imtiyozlar orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, bandlikni oshirish, investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va raqamli xizmatlar yordamida soliq ma'murchiligini soddalashtirish bo'yicha amaliy jihatlar o'rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: soliq imtiyozlari, kichik biznes, tadbirkorlik, soliq yuklamasi, bandlik, investitsiyalar, rag'batlantirish.

Abstract. This article examines current mechanisms for applying tax incentives to small businesses in the Uzbek economy, their impact on economic development, and the effectiveness of stimulating entrepreneurial activity through these incentives. It also explores and analyzes the practical aspects of increasing employment, attracting investment, reducing production costs, and simplifying tax administration using digital services.

Keywords: tax incentives, small business, entrepreneurship, tax burden, employment, investment, incentives.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные механизмы применения налоговых льгот к малому бизнесу в экономике Узбекистана, их влияние на экономическое развитие и эффективность стимулирования предпринимательской активности посредством этих льгот. Также изучаются и анализируются практические аспекты увеличения занятости, привлечения инвестиций, снижения производственных издержек и упрощения налогового администрирования с использованием цифровых услуг.

Ключевые слова: слова: налоговые льготы, малый бизнес, предпринимательство, налоговое бремя, занятость, инвестиции, льготы.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri — kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xususan ularning soliq yukini kamaytirish va soliq tartiblarini soddalashtirishdir. Kichik biznesning YAIMdagi ulushi, bandlikni ta'minlashdagi o'rni hamda hududlar iqtisodiy faolligidagi roli soliq imtiyozlarining zarurligini yanada oshirmoqda.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida soliq siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlik uchun qulay soliq muhiti yaratish va kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan [1].

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari mamlakatimizda izchil shakllangan. Soliq imtiyozlarining qo'llanilishi, imtiyozli kreditlash tizimi, tadbirkorlik huquqlarining himoyasi, shu jumladan biznes-ombudsman institutining joriy etilishi ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur yondashuv amalda soliq imtiyozlarining shakllari va ularni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq imtiyozlarining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi o'rni iqtisodiyot nazariyasi va amaliy tadqiqotlarda keng muhokama qilingan. Klassik iqtisodiy maktab vakillari soliq yengilliklarini investitsion faollikni kuchaytiruvchi omil sifatida ko'rgan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlar ularning bandlik, innovatsiyalar va kichik biznes raqobatbardoshligiga ta'sirini ham o'rganadi.

I. Shumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasi bo'yicha, tadbirkor "yangilik yaratuvchi kuch" sifatida iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi omilidir, soliq yengilliklari esa ushbu innovatsion jarayonning tezlashishiga xizmat qiladi [2]. Shu nuqtayi nazardan, soliq imtiyozlari kichik biznesning yangi texnologiyalarni joriy etishiga, mahsulotlarni diversifikatsiya qilishiga va raqobat ustunligi shakllanishiga yordam berishi mumkin.

R. Xizrich tadbirkorlik faoliyatida resurslardan samarali foydalanishni asosiy mezon sifatida ko'rib, soliq yukining kamayishi biznesning qiymat yaratish salohiyatini oshirishini ta'kidlaydi [3]. Uning fikricha, soliq imtiyozlari nafaqat moliyaviy yengillik, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda soliq imtiyozlari va kichik biznes rivoji o'rtasidagi bog'liqlik keng o'rganilgan. Masalan, OECD tadqiqotlarida kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq mexanizmlari investitsion faollik, innovatsion faoliyat va eksport hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [4]. Jahon banki ekspertlari esa soliq imtiyozlarining samarasi ularning maqsadli guruhlariga to'g'ri yo'naltirilishi va boshqaruvning shaffofligi bilan chambarchas bog'liq ekanini qayd etadi [5].

Markaziy Osiyo davlatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda soliq yengilliklari kichik biznesning rasmiylashtirilgan sektoriga o'tishini tezlashtirishi, bandlikni oshirishi va hududlar iqtisodiy faolligini kuchaytirishi ko'rsatilgan. Xususan, O'zbekiston bo'yicha A. Vakhabov va M. Juraevning ishlari soliq imtiyozlarining iqtisodiyotda strukturaviy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni asoslab beradi [6].

Ko'plab iqtisodiy adabiyotlar soliq imtiyozlarining biznes resurslaridan samarali foydalanish, kapital aylanishini tezlashtirish va yangi tadbirkorlik subyektlarining bozorga kirishini qulaylashtirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [7]. Bu esa soliq imtiyozlarining aynan kichik biznes uchun strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: tahliliy yondashuv – soliq imtiyozlarining mazmuni, turlari va huquqiy asoslari o'rganildi; qiyosiy tahlil – O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan solishtirildi; empirik tahlil – kichik biznesning real soliq yuklamasi va moliyaviy natijalariga baho berildi; iqtisodiy modellash – soliq imtiyozlarining bandlik va investitsiyalarga ta'siri baholandi.

Tadqiqotning metodologik asosida tadbirkorlik sub'yektlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ta'sirini tahlil qilish va investitsiya jarayonlarini baholash yotadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq imtiyozlarining qo'llanilishi va ularning iqtisodiy ta'siri. O'zbekiston soliq tizimida kichik biznes subyektlari uchun bir qator imtiyozlar joriy etilgan. Ular quyidagilardan iborat: yillik aylanmasi ma'lum miqdordan oshmagan tadbirkorlar uchun yagona soliq to'lovi tizimi; ayrim yangi tashkil etilgan korxonalar uchun soliqdan vaqtinchalik ozod etish; ijtimoiy soliq stavkasini pasaytirish; eksport qiluvchi kichik bizneslar uchun qo'shimcha rag'batlantirishlar; texnopark rezidentlariga soliq va bojxona imtiyozlari.

Ushbu imtiyozlarning iqtisodiy ta'siri quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- operatsion xarajatlar qisqaradi, foyda normasi oshadi;
- ishchilar soni ko'payadi, chunki yengil soliq yuklamasi ish haqi fondini kengaytirish imkonini beradi;
- jamg'arilgan mablag'lar investitsiyaga yo'naltiriladi;
- yangi korxonalar ochilishi jadallashadi;
- kreditga layoqatlilik ortadi, chunki soliq yukining pasayishi barqaror daromad bazasini yaratadi.

Kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlarining turlari va ularning iqtisodiy ta'siri.

Soliq imtiyozi turi	Mazmuni	Kichik biznesga iqtisodiy ta'siri
---------------------	---------	-----------------------------------



Yagona soliq to'lovi (YST)	Kichik biznes uchun bir nechta soliq o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etiladi.	Soliq yuklamasi kamayadi, hisob-kitoblar soddalashadi, biznes yuritish xarajatlari qisqaradi.
Soliqdan vaqtinchalik ozod etish (tax holidays)	Yangi tashkil etilgan korxonalar bir muddat ayrim soliqlardan ozod qilinadi.	Boshlang'ich kapitalni jamlash osonlashadi, yangi korxonalar soni oshadi, investitsiya muhitiga ijobiy ta'sir qiladi.
Ijtimoiy soliq stavkasining pasaytirilishi	Kichik korxonalar uchun ish beruvchilar to'laydigan ijtimoiy soliq miqdori kamaytiriladi.	Ishchi yollash rag'batlanadi, bandlik oshadi, ish haqi fondi kengayadi.
Exportga yo'naltirilgan korxonalar uchun imtiyozlar	Tovarlarni eksport qiluvchi kichik biznes subyektlari uchun qo'shimcha soliq yengilliklari taqdim etiladi.	Eksport hajmi oshadi, valyuta tushumi ko'payadi, raqobatbardoshlik kuchayadi.
Texnoparklar va EIZ rezidentlari uchun imtiyozlar	Innovatsion va texnologik korxonalar soliq va bojxona imtiyozlariga ega bo'ladi.	Yangi texnologiyalar joriy etiladi, innovatsion ishlab chiqarish kengayadi, startaplar tez rivojlanadi.
Raqamli soliq ma'murchiligi (e-hisobot, e-litsenziya)	Soliq hisobotlari va ro'yxatdan o'tish jarayonlari onlayn shaklda amalga oshiriladi.	Ma'muriy yuk kamayadi, vaqt tejiladi, biznes jarayonlari tezlashadi va shaffoflik oshadi.

Manba: muallif tomonidan tahlillar asosida tayyorlangan.

Yuqoridagi jadvalda kichik biznes subyektlari uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining asosiy turlari va ularning iqtisodiy natijalari tizimli ravishda yoritilgan.

Birinchidan, yagona soliq to'lovi (YST) kichik biznes uchun eng muhim yengilliklardan biridir. U bir nechta soliq turlarini yagona to'lovga birlashtirib, buxgalteriya hisobini soddalashtiradi va operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Natijada kichik biznesning moliyaviy barqarorligi oshadi.

Ikkinchidan, soliqdan vaqtinchalik ozod etish kabi imtiyozlar boshlang'ich davrda korxonalar duch keladigan moliyaviy bosimni kamaytiradi. Ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan resurslarni jamlash imkoniyati kengayadi, bu esa yangi firmalarning tezroq shakllanishiga olib keladi [6].

Uchinchidan, ijtimoiy soliqning kamaytirilishi bandlikning oshishiga bevosita hissa qo'shadi. Ish beruvchilarning xarajatlari qisqargani uchun ular ko'proq xodimlarni yollay oladi, bu esa mehnat bozorining faolligini kuchaytiradi.

To'rtinchidan, eksportga yo'naltirilgan tadbirkorlarga beriladigan soliq yengilliklari xalqaro bozorlarga chiqishni rag'batlantiradi. Bu esa kichik biznesning tashqi savdodagi ulushini oshirib, valyuta tushumi orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Beshinchidan, texnoparklar va erkin iqtisodiy zonalaridagi soliq imtiyozlari innovatsion korxonalar uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Bunday hududlarda ishlovchi kichik biznes subyektlari ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarni tez joriy etishi, ilmiy izlanishlarni tijoratlashtirishi va startaplar rivoji uchun muhim platformaga ega bo'ladi.

Oltinchidan, raqamli soliq ma'murchiligi kichik biznes uchun eng samarali chora-tadbirlar qatoriga kiradi. Soliq hisobotlarini onlayn topshirish, litsenziya va ruxsatnomalarni elektron shaklda olish tadbirkorlarning vaqtini tejab, ma'muriy bosimni kamaytiradi va biznes jarayonlarining shaffofligini oshiradi.

Umuman olganda, soliq imtiyozlarining turli shakllari kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy yukni yengillashtiradi, investitsiya faoliyatini kengaytiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va bandlik o'sishini ta'minlaydi. Ularning bir-birini to'ldiruvchi xususiyati milliy iqtisodiyotning barqaror va muvozanatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Hududiy ko'rsatkichlar ta'siri ko'radigan bo'lsak, turli hududlarda soliq to'lovi farq qiladi. Chunki daromad manbai ham turlichadir.

2024-yil soliq imtiyozlaridan foydalanayotgan kichik bizneslarning YAIMdagi ulushi tarmoqlar kesimida farqlanadi. Qishloq xo'jaligida imtiyozlar deyarli barcha mayda subyektlarni qamrab olgan bo'lsa, xizmat ko'rsatish sohasida soliq yengilliklari yangi xizmatlar segmentlarini kengaytirgan. Sanoat tarmoqlarida esa texnoparklar va erkin iqtisodiy zonalaridagi imtiyozlar ishlab chiqarishni rag'batlantirmoqda.

Soliq imtiyozlarining o'zaro bog'liqligi, ya'ni soliq imtiyozlari:

- imtiyozli kreditlarga layoqatni oshiradi;
- biznes-inkubatorlar va akseleratorlarda rivojlanayotgan startaplar uchun qulay moliyaviy muhit yaratadi;
- raqamli xizmatlar orqali soliq ma'murchiligini soddalashtiradi;
- loyihalarda kichik biznesning ishtirokini kengaytiradi.

Biroq bir qator masalalar mavjud: ayrim tadbirkorlar soliq imtiyozlaridan foydalanish tartibini yetarlicha bilmaydi; soliq ma'murchiligidagi ayrim byurokratik cheklovlar saqlanib qolgan; imtiyozlarning samaradorligini baholash tizimi to'liq takomillashmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlarini qo'llash iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biridir. Soliq yengilliklari:

- tadbirkorlik faoliyatini sezilarli darajada rag'batlantiradi;
- yangi ish o'rinlari yaratadi;
- investitsiyalar oqimini faol oshiradi;
- kichik biznesning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, quyidagi takliflarni berish mumkin:

Soliq imtiyozlaridan foydalanish tartibi bo'yicha tadbirkorlar uchun amaliy qo'llanmalar yaratish — bu imtiyozlardan foydalanishdagi tushunmovchiliklarni kamaytiradi.

Kichik biznesning soliq yuklamasini tahlil qiluvchi "Soliq barometri" tizimini joriy etish — soliq siyosatining samaradorligini real vaqt rejimida baholashga imkon beradi.

Mahalliy hokimliklar huzurida "Soliq imtiyozlari bo'yicha konsultativ markazlar" tashkil etish — tadbirkorlarga tezkor maslahat va ko'makni ta'minlaydi.

Raqamli soliq xizmatlarini yanada kengaytirish va ularni soddalashtirish — soliq ma'murchiligidagi ortiqcha vaqt va xarajatlarni qisqartiradi.

Innovatsion startaplar uchun soliq tatillarini (tax holiday) joriy etish — yuqori texnologiyali loyihalarning tez rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlarini qo'llash iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni kengaytirish, yangi loyihalarni rag'batlantirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. T.: "O'zbekiston", 2022 y.
2. J. A. Schumpeter, The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
3. R. D. Hisrich, M. P. Peters, and D. A. Shepherd, Entrepreneurship, 10th ed. New York: McGraw-Hill, 2016.
4. OECD, Taxation and Small and Medium-Sized Enterprises (SMEs). Paris: OECD Publishing, 2019. doi: 10.1787/9789264311402-en.
5. World Bank, Doing Business 2020: Comparing Business Regulation. Washington, DC: World Bank Publications, 2020. doi: 10.1596/978-1-4648-1441-0.
6. Vahobov, A. V., & Jo'rayev, A. S. (2009). Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq.
7. J. Stiglitz and A. Weiss, "Credit rationing in markets with imperfect information," American Economic Review, vol. 71, no. 3, pp. 393–410, 1981.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100